

# Инновацион иқтисодиёт шароитида банк-молия тизимини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари

Республика илмий-амалий конференцияси

2019 йил 28 сентябрь

Тошкент давлат иқтисодиёт университети,  
Ўзбекистон Республикаси Марказий банки ва  
Ўзбекистон Республикаси Банклари Ассоциацияси  
хамкорликда

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ МАРКАЗИЙ БАНКИ**

**ЎЗБЕКИСТОН БАНКЛАРИ АССОЦИАЦИЯСИ**

**ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ИҚТИСОДИЁТ УНИВЕРСИТЕТИ**



**ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА БАНК-МОЛИЯ  
ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ УСТУВОР  
ЙЎНАЛИШЛАРИ**

*Республика илмий-амалий конференцияси  
материаллари тўплами*

**2019 йил 28 сентябрь**

**Тошкент-2019**

**Инновацион иқтисодиёт шароитида банк-молия тизимини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари.** Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами (2019 йил 28 сентябрь). – Т.: ТДИУ, 2019. -292 б.

“Инновацион иқтисодиёт шароитида банк-молия тизимини ривожлантиришнинг устувор йўналишлари” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўпламига илмий-тадқиқот ишларини олиб бораётган изланувчи ва тадқиқотчилар, магистрантлар, мазкур соҳа мутахассислари ҳамда профессор-ўқитувчиларнинг илмий ишлари киритилган.

Ушбу илмий-амалий конференциянинг асосий мақсади – 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг Ҳаракатлар стратегиясида белгиланган устувор вазифаларни самарали амалга ошириш бунда, банк-молия соҳасини инновацион ёндашувлар асосида ривожлантириш бўйича илмий таклиф ва амалий тавсияларни ишлаб чиқишдан иборат.

Конференция материаллари тўпламида инновацион ёндашувлар асосида банк тизими фаолиятини тартибга солиш механизмини такомиллаштириш, мамлакат инвестицион жозибадорлигини оширишнинг илмий-инновацион асосларини шакллантириш, шунингдек, қимматли қоғозлар бозорини ривожлантиришнинг инновацион услубларини жорий этиш истиқболларини ўрганиш ҳамда хорижий мамлакатлар тажрибаси асосида инновацион банк хизматларини ривожлантириш имкониятлари ёритилган бўлиб, ундан профессор-ўқитувчилар, мустақил изланувчилар, илмий тадқиқотчилар, соҳа мутахассислари ҳамда талабалар ўз илмий изланишларида фойдаланишлари мумкин.

**Масъул муҳаррир** и.ф.д., профессор Б.Ю.Ходиев

**Таҳрир ҳайъати:**

DSc., доц. Ш.И.Мустафакулов,  
и.ф.н., доц. М.П.Эшов,  
PhD., доц. Ғ.Э.Захидов,  
и.ф.д., проф. Н.Ғ.Каримов,  
и.ф.н., доц. М.М.Ташходжаев,  
и.ф.н., доц. И.Р.Тоймухамедов,  
и.ф.н., доц. Р.Р.Тожиев,  
PhD., доц. У.Ш.Дускобилов

**Тақризчилар:**

и.ф.д., проф. Б.Т.Бердияров,  
и.ф.д., проф. Т.И.Бобакулов

*Мазкур тўпламга киритилган материалларнинг мазмуни, ундаги статистик маълумотлар ва меъёрий ҳужжатлар санасининг тўғрилигига ҳамда танқидий фикр-мулоҳазаларга муаллифларнинг ўзлари масъулдирлар.*

	ижтимоий-иқтисодий ривожланишидаги аҳамияти	
Ганиев А.Н.	Формирования модели финансового мониторинга риска участия банка в процессах по легализации преступных доходов	100
Хамроев Ш.	Банк рискларини бошқариш стратегияси	108
Yakubova Y.U.	Employing “nudge theory”, using innovative behavioral approaches in banking sector of Uzbekistan	113
Yuldashev A.A.	The impact of microfinance by commercial banks to the economic and social development of Uzbekistan	116
Wang Cheng	Marketing potential: economic significance, content and prerequisites for formation	119
Navruzova G., Jurayev I., Olimbekov O.	Financial innovation on internet banking	122
Азларова А.А., Абдухаликов А.	Основные подходы к оценке кредитоспособности заемщика коммерческим банком на современном этапе	125
Бозаров Ш.Т.	Реализация стратегии действий по дальнейшему развитию республики узбекистан в 2017-2021гг. в лизинговом секторе.	130
Юлдашев А.А.	Иқтисодиётни ривожлантириш шароитида тижорат банклари томонидан микромолиялаштиришнинг ўрни ҳамда уни такомиллаштириш йўллари	133
Худоёров О.	Тижорат банклари кафолатларидан фойдаланиш амалиётини такомиллаштириш	136
Суннатов Ю.У.	Номолиявий фирмаларнинг молиявий ҳолати рейтингини баҳолашнинг амалий жиҳатлари	138
<b>2-шубъа.</b>		
<b>МАМЛАКАТ ИНВЕСТИЦИОН ЖОЗИБАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ИЛМИЙ-ИННОВАЦИОН АСОСЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ</b>		
Maxmudov N.M., Avazov N.R.	Investitsion muhitni shakllantirishning innovatsion usullari	141
Бобожонов А.Б.	Инновацион иқтисодиёт шаклланишида ахборот-коммуникация технологиялари ривожининг таъсири	148
Абсаломов Т.Т.	Инвестиционно-инновационный потенциал как основа развития экономики региона	154
Исмаилов Д.А., Муҳиддинова Г.Ш.	Худудларнинг инвестицион имкониятлари ва жозибадорлигини ошириш йўллари	160
Дускобилов У.Ш., Султанов Р.Б.	Инвестицион лойиҳаларни молиялаштиришда банк рисклари таснифи	163
Амонова Н.У.	Инвестиция лойиҳаларини кредитлаш амалиётини такомиллаштириш	167
Ҳайдаров Ў. А.	Республикамизда инвестицион муҳит жозибадорлигини ривожлантиришнинг илмий-назарий асослари	173
Мажидов Ж.К.	Тижорат банклари инвестиция портфелининг сифатини ошириш йўллари	177
Суннатуллаев О.У.	Инсон капиталига инвестицияларни самарали йўналтириш	180
Саъдуллаева Г.С.	Ўзбекистон Республикаси таълим хизматлари бозорини ривожлантиришда инвестицияларни жалб қилиш	184
Арзуманян С.Ю.	Законодательное регулирование и проблемы	187

2-шубба.

**МАМЛАКАТ ИНВЕСТИЦИОН ЖОЗИБАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ  
ИЛМИЙ-ИННОВАЦИОН АСОСЛАРИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ**

---

---

**Maxmudov N.M.**

**TDIU “Makroiqtisodiyot” kafedrasi professori,**

**Avazov N.R.**

**TDIU Iqtisodiyot fakulteti talabasi**

**INVESTITSION MUHITNI SHAKLLANTIRISHNING  
INNOVATSION USULLARI**

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada O‘zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalar kirib kelishi hajmini oshirish hamda investitsion muhitni shakllantirishning innovatsion usullari muhokama qilingan.*

**Аннотация.** *В данной статье рассматриваются инновационные способы увеличения инвестиций и создания инвестиционного климата в экономике Узбекистана.*

**Abstract.** *This article discusses innovative ways to increase investment and create an investment climate in Uzbekistan's economy.*

**Tayanch iboralar.** *investitsiya, innovatsiya, investitsion muhit, innovatsion usul, erkin iqtisodiy zona, xorijiy investitsiyalar, makroiqtisodiy barqarorlik, tadbirkorlik, iqtisodiy rivojlanish.*

Investitsiya iqtisodiy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi daromadlarini oshirish, ishsizlik darajasini pasaytirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash hamda ishlab chiqarish hajmini oshirish ko’p jihatdan mamlakatga kirib kelayotgan investitsiyalar hajmiga bog’liq hisoblanadi. Shu boisdan mamlakatimizda investitsiya kirib kelishi hajmini oshirishga qaratilgan ko’plab ishlar amalga oshirilmoqda. Natijada mamlakatimiz iqtisodiyotiga kirib kelayotgan investitsiyalar hajmi yildan yilga ortib, bu iqtisodiyotning jadal rivojlanishiga hamda tadbirkorlikning rivojiga olib kelmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev aytib o’tganlaridek: “Jahon tajribasi shuni ko’rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo’lsa, o’z iqtisodiyotining barqaror o’sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o’zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag’a bo’lmaydi. Investitsiya bilan birga turli

soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi.”<sup>1</sup>. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida investitsiya bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan: “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo‘naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va yuqori iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini saqlab qolish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish bo‘yicha institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uning ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirish, hududlar, tuman va shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish”<sup>2</sup>.


Investitsiya muhitida investitsiya salohiyatining o‘rni. Investitsiya muhitini shakllantirishda huquqiy-me‘yoriy tizim Investitsiya muhitini yaxshilashdan maqsad investitsiya salohiyatini oshirish uchun zarur va maqbul shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Investitsiya salohiyati deganda iqtisodiy faoliyatda ishlatiladigan (foydalaniladigan) ishlab chiqarish zaxiralari, quvvatlari, kuchlari, imkoniyatlari kabilardan iborat resurslar yig‘indisi tushuniladi. Investitsiya salohiyati foyda olish yoki ijobiy ijtimoiy samaraga erishish maqsadida uzoq muddat foydalaniladigan aktivlarga mablag‘ kiritish (qo‘yish) imkoniyatlari darajasini xarakterlaydi. Investitsiya salohiyati – mamlakatda asrlar davomida shakllangan bir qancha omillar yig‘indisini tavsiflaydi. Bu omillar ishlab chiqarish omillari, tabiiy resurs omillari, mehnat omillari, innovatsiya va iste‘mol omillari hamda mamlakatning moliyaviy salohiyati kabilarni qamrab oladi (1-rasm).

Tabiiy salohiyat tabiiy resurslar miqdori va sifati, mamlakatning iqlimi, tabiiy-geografik shart-sharoitlarini o‘z ichiga oladi. Tabiiy resurs omillari ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda muhim o‘rin tutadi va quyidagilarni qamrab oladi: mineral resurslar (foydali qazilmalar); agromuhit shart-sharoitlari; er va suv resurslari; o‘simlik va hayvonot dunyosi va boshqalar.

Mehnat salohiyati iqtisodiy faol aholi soni, yoshi, aholining bilim darajasi kabilarni xarakterlaydi. Shuningdek, ishlab chiqarishga layoqatli, bilim, malaka, mahoratga ega bo‘lgan kishilardan iborat bo‘lsa, intellektual salohiyat jamiyat a‘zolarining ilmiy, ma‘rifiy, ma‘naviy, intellektual salohiyatini ko‘rsatadi. Qoida tarzida, xorijiy investorlarni malakali ish kuchi va arzon ish haqi to‘lanadigan hududlar jalb qiladi.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil uchun mo‘ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.// Xalq so‘zi, 2018 yil 29 dekabr.

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” to‘g‘risidagi farmoni, PF-4947.



**2.1-rasm. Investitsiya salohiyati omillari**

Ishlab chiqarish salohiyati mamlakatdagi mavjud ishlab chiqarish quvvatlari, ishlab chiqarish vositalari, iqtisodiyot tarkibi, qazib oluvchi, qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari, muvaffaqiyatli amalga oshirilgan investitsiya loyihalari soni (qo'shma korxonalar tomonidan amalga oshirilgan investitsiya loyihalarini ham qo'shgan holda), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish holati va boshqalarni ifodalaydi.

Texnika-texnologiya salohiyati mamlakatdagi mashina-mexanizmlar miqdori, ularning tarkibi, texnologik tizim kabilardan iborat bo'lib, u fan yutuqlari va ularning qay darajada tatbiq etilishi bilan bog'liq.

Innovatsiya salohiyati mamlakatdagi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari, texnika va texnologiyalarning yangilanish darajasi (yangi avlodi), milliy ishlab chiqarishdagi yangiliklar, kashfiyotlarni xarakterlaydi.

Iste'mol salohiyati investorlar tomonidan mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ichki bozorda qancha ulishi sotilish, shu asosda talabni o'rganish, raqobatchilar va aholining daromadlari darajasi sifatida qaraladi.

Moliyaviy salohiyat ushbu mamlakatning moliyaviy imkoniyatlari, iste'mol va jamg'armaning nisbati, bank sohasida pul-kredit va depozit siyosati, tashqi qarzlarning holati, ichki zaxiralar va boshqalarni xarakterlaydi.

Xizmat ko'rsatish salohiyati mamlakatda xizmat ko'rsatish qay darajada ekanligini hamda xizmat ko'rsatish sifatini ko'rsatib beradi. Mamlakatda xizmat ko'rsatish qanchalik rivojlangan bo'lsa unga investorlarning qiziqishi ortadi.

Investitsiya salohiyatini ifodalovchi ushbu omillarning mavjudligi xorijiy tadbirkorlarning aynan o'sha mamlakatga investitsiya qilishining asosiy

sabablaridan bo'lishi mumkin. Biroq, investitsiya salohiyatining mavjudligi xorijiy investitsiyalarning uzoq muddat davomida barqaror kirib kelishini kafolatlay olmaydi. Mamlakatdagi qulay investitsiya shart-sharoitlarisiz investitsiya salohiyati hali "hazm qilinmagan" bo'lik hisoblanadi. Investitsiya muhitini baholash, aynan, investitsiya shart-sharoitlariga asoslanadi.

Investitsiya shart-sharoitlariga quyidagi omillar kiradi:

- umumiyqtisodiy shart-sharoitlar – YalMning o'sish sur'atlari, inflyatsiya darajasi, ishsizlik darajasi, foiz stavkasi, ishlab chiqarish hajmi va tarkibi, to'lov balansi, monopolizm darajasi, valyuta konvertatsiyasi, tashqi qarz, investitsiyalar hajmi va moliyalashtirish manbalari, davlat byudjeti defitsiti va boshq.;

- siyosiy shart-sharoitlar – mamlakatdagi siyosiy barqarorlik, investitsiya faoliyatini tartiblovchi va investorlarning huquqlarini va ularga yaratilgan kafolatlarni ta'minlovchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mavjudligi va amal qilishi, jinoyatchilik va korrupsiya holati va boshq.;

- bozor mexanizmi shart-sharoitlari – bozor infratuzilmasining rivojlanganligi: bank, sug'urta, fond bozori, transport va aloqa, raqobat va narx shakllanishi va boshq.;

- axborot ta'minoti shart-sharoitlari – axborot va telekommunikatsiyalarning rivojlanganligi, raqobatchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni tezkorlik bilan olish imkoniyatlari, mahalliy hamkorlar to'g'risidagi ma'lumotlarning shaffofligi va boshq.;

- ekologik shart-sharoitlar – mamlakatdagi ekologik holat, mamlakatda va qo'shni davlatlarda ekologik xavfli hududlarning mavjudligi, xalqaro qonunchilikdagi ekologik me'yorlarga amal qilish holati va boshq.;

- ijtimoiy madaniy va etnografik shart-sharoitlar – mahalliy aholining mentaliteti va madaniyati, aholining hayot tarzi va turmush holati, jamiyatning xorijiy investitsiyalarga bo'lgan munosabati va boshq.

Ma'lumki, hukumat mamlakatdagi investitsiya shart-sharoitlarini takomillashtirib, makroiqtisodiy holatni yaxshilaydi, iqtisodiy barqarorlikka erishishga harakat qiladi va iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Bu esa, nafaqat, xorijiy investorlar uchun investitsiya muhitining jozibadorligini ta'minlaydi, balki ichki investitsiya jarayonlarini faollashtiradi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda investitsiya muhitini shakllantirishda huquqiy-me'yoriy tizimni doimo takomillashtirib borish talab etiladi. Bu, o'z navbatida, xorijiy sarmoyalar kirib kelishini rag'batlantirib, iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Bugungi kunda O'zbekistonda qulay investitsiya muhitini muntazam ravishda yaxshilab borishni ta'minlash ustuvor vazifadir. Bunda davlatning asosiy vazifasi kapital jalb qilish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish bilan



izohlanadi. Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasi ko'p miqdorda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatiga ega: kafolat va imtiyozlarni o'zida aks ettiruvchi qonun hujjatlari; iqtisodiyotda xususiy sektor va kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi ortib borayotganligi, xususiy mulkning davlat tomonidan himoyalaniishi va raqobat muhitining mavjudligi; zarur investitsiya infratuzilmasining yaratilganligi va rivojlanayotganligi; siyosiy barqarorligi; geografik joylashuvining o'rta darajadali; boy tabiiy mineral xom ashyoga egaligi; qishloq xo'jaligi sohasining rivojlanganligi; arzon va malakali mehnat resurslarining mavjudligi va boshqalar.

O'zbekistonda investitsiya iqlimining muhim omillaridan biri xorijiy investorlar uchun moliyaviy-iqtisodiy rag'batlar va imtiyozlar tizimining holati va amal qilishi hisoblanadi. Bunda mazkur rag'bat va imtiyozlar ishlab chiqarish sohasida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni ko'paytirishga va asosan, eksport salohiyatini oshirishga qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, respublikada muayyan darajada xorij kapitalini qabul qilish tizimi shakllangan. Bunda xorij kapitaliga nisbatan davlat siyosatini ifoda etadigan huquqiy me'yorlar, qoidalar va muassasalar majmui nazarda tutiladi. Xorij kapitalini qabul qilish tizimi investitsiya muhitining tarkibiy qismiga kiradi va ayni paytda mustaqil hisoblanadi, chunki bu tizimni o'zgartirish xususiyatiga ega. Bu tizimning elementlari quyidagilardan iborat; xorij kapitali uchun soliq va bojxona imtiyozlarini berish; foydani boshqa iqtisodiyotga o'tkazishning qulay rejimi; milliyashtirishdan kafolatlar; ro'yxatdan o'tkazishning oddiy tartib qoidalari;; erkin iqtisodiy zonalar barpo etish; aktsiyadorlik kapitalida hissani cheklash; majburiy eksport kvotasini joriy qilish; narxlarni nazorat qilish; tashqi savdo operatsiyalarini litsenziyalash va boshqalar.

Fikrimizcha, respublikada yaratilgan qulay investitsiya muhitini rivojlantirish uchun rag'batlantirish omillarini yanada kuchaytirish talab etiladi. Shu munosabat bilan ishlab chiqarishga investitsiyalarni rag'batlantirish uchun tadbirkorlik tuzilmalariga jadallashgan amortizatsiya usullarini qo'llashda to'la erkinlik berish kerak. Bozor iqtisodiyoti sharoitida amortizatsiya korxonalarining investitsiya faoliyatini rag'batlantiruvchi bosh omillardan hisoblanadi. Shu sababli rivojlangan davlatlarda amortizatsiya me'yori, soliqlar stavkasini tasdiqlash bilan bir vaqtda aniqlanadi. Bunday holatda yetakchi tarmoqlarga investitsiyalarni qo'yishni rag'batlantirish maqsadida yuqori amortizatsiya me'yorlari belgilanadi. Bu tajribani O'zbekistonda qo'llash muhimdir, chunki mashina va uskunalarga o'rtacha amortizatsiya me'yori bizda 15% ni tashkil etsa, AQShda bu 20-33 %ni, Angliyada 25 % ni tashkil etadi.

Qulay investitsiya muhitini rivojlantirishda soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini kuchaytirish beqiyos ahamiyatga ega. Soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini

to'rt jihatdan olib qarash mumkin, ular: soliq to'lashdan vaqtinchalik ozod qilish; soliq stavkasini kamaytirish; soliqqa tortiladigan bazani toraytirish; soliq majburiyatini bajarishni kechiktirish (soliq krediti). Qayd qilingan rag'batlar u yoki bu darajada xorij investitsiyalar ishtirokidagi keng doiradagi korxonalar uchun tatbiq etiladi. Rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlarining amal qilishini, shuningdek, investitsiyalarni inson kapitaliga, texnologik o'sish va texnika bilimlari sohalarini rivojlantirishga, kengaytirishga ham joriy qilish kerak. Bularning barchasi O'zbekistonda investitsiya muhitini modellashtirish masalasini kun tartibiga qo'yadi. Bu model xorijiy investorga ta'sir ko'rsatadigan omillar to'g'risida mukammal ma'lumot to'plash, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatni yaqqol baholash hamda xorijlik sheriklar harakatlari motivatsiyasini anglash, xorij investitsiyalarini tartibga solishning asosiy vositalarini isloh qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Shuningdek, xorijiy investitsiya asosidagi korxonalarining daromadlarini soliqqa tortishda qo'llaniladigan soliq imtiyozlarida, birinchidan, bu soliq imtiyozlarining muddati, hajmi, qo'llanish shart-sharoiti aniq ko'rsatilgan bo'lishi; ikkinchidan, bu yengilliklar xorijiy investorlarga yaxshi tanish va tushunarli bo'lib, kamida besh-o'n yilga belgilanishi; uchinchidan, soliq imtiyozlari o'zgarmas va qat'iy bo'lishini ta'minlash lozim. Shundagina bu imtiyozlar o'z samarasini berishi mumkin.

Soliq imtiyozlarini berishda jahon tajribasini o'rganish maqsadga muvofiqdir. AQShda korxonalar zarar ko'rib ishlayotgan davriga soliq to'lashdan ozod qilinadi. Bu tajribani O'zbekistonda ham eng kerakli sohalarda faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun qo'llash maqsadga muvofiq bo'lar edi. Buning uchun qat'iy soliq nazoratini o'rnatish zarur bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida, davlat ayrim tizimlarning shakllanishiga, yangi hududlar va ishlab chiqarishning o'sishida boshlang'ich manbalarning tashkil etilishiga yoki ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga e'tibor qaratishi lozim. Shuningdek, davlat hisobidan investitsiyalarni moliyalashtirishda, ularning strategik rivojlanishida ahamiyatga ega bo'lgan, lekin kelajakda tez samara bera olmaydigan tarmoqlar va ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Butun dunyoda davlat mablag'lari, asosan, yo'l qurilishi, shahar obodonchiligi va ishlab chiqarish infratuzilmalarining rivojlanishi kabi umumiy miqyosdagi katta ishlarga sarflanadi. Iqtisodiyotning bozor mexanizmiga asoslangan sharoitida davlatning roli asta-sekin torayib borib, uning qo'lida, asosan, davlat miqyosi darajasidagi vazifalar qoladi. Ya'ni, ijtimoiy sohaning boshlang'ich ta'limi, sog'liqni saqlashning tez tibbiy xizmat ko'rsatish sohasi, davlat boshqaruvi va boshqalarni moliyalashtirish byudjet hisobidan amalga oshiriladi.

O'zbekistonda intellektual salohiyatni o'stirish uchun kapital qo'yish kelajakda respublika iqtisodiyotini rivojlantirishning eng asosiy omillaridan bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun bu sohada kapital qo'ygan investorlarga soliq imtiyozlarini berish o'ta muhimdir.

Respublikada investitsiya iqlimi huquqiy islohotlarning bosqichma-bosqichligini, bozor infratuzilmasining shakllanganligini, nodavlat sektorining o'sishini va xususiylashtirish jarayonlarini, sog'lom iqtisodiy muhitni va ijtimoiy-siyosiy holatning barqarorligini tavsiflab beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.// Xalq so'zi, 2018 yil 29 dekabr.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi farmoni, PF-4947.

3. Vaxobov A.V., Xojibakiev Sh.X., Mo'minov N.G. "Xorijiy investitsiyalar". O'quv qo'llanma.- T.: Moliya, 2010.-328 b.

4. Вахабов А.В., Разыкова Г.Х., Хажибакиев Ш.Х. Иностранные инвестиции и модернизация национальной экономики. Монография. Т.:Молия, 2011.-300 с.

5. Bekmurodov A.Sh., Karrieva Ya.K., Ne'matov I.U., Nabiev D.H., Kattaev N.T. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. -T.:Iqtisodiyot, 2010.-166 b.

6. Mamatov B., Xujamkulov D., Nurbekov O. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. - T.: Iqtisod-Moliya, 2014. - 608 b.

7. Kayumov R.I., Xojimatov R.X. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish: Darslik. - T.: TDIU, 2010. - 496 b.

8. Karlibaeva R. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish: O'quv qo'llanma. - T.: Cho'lpon, 2011.-124 b.

9. Raimjonova M.A. O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga investitsiyalarni jalb qilish: nazariy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari. T.: "Extremum-press", 2013.-176 b.

10. Toshov O. Investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirish. T.: "Akademnashr", 2012.-165 b.

11. [www.tsue.uz](http://www.tsue.uz) Toshkent davlat iqtisodiyot univesiteti rasmiy sayti.

ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА БАНК-МОЛИЯ ТИЗИМИНИ  
РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ

Республика илмий-амалий анжумани  
материаллари тўплами

*Муҳаррирлар*  
Мирбабаева С.А., Мирҳидоятова Д.М.,  
Ваҳобова М.М.

Босишга рухсат этилди 25.09.19. Қоғоз бичими 60x80 1/16.  
Шартли босма табағи 18,25. Адади 100 нусха.  
\_\_\_\_\_сонли буюртма.

100003, Тошкент ш., Ислом Каримов кўчаси, 49-уй.  
Тошкент давлат иқтисодиёт университети босмахонасида босилди.